



MAMLAKAT EKSPORT GEOGRAFIYASI TUSHUNCHASI VA UNING
MAZMUN-MOHIYATI

Fayzullayev Sardor Nurali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat eksport geografiyasi tushunchasi, uning shakllanish omillari, hududiy tarqalishi va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Eksport geografiyasi nafaqat tashqi savdo yo'nalishlarini belgilash, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'yaydi. Maqolada eksport oqimlarining yo'nalishi, asosiy hamkor mamlakatlar, geografik diversifikatsiya darajasi hamda eksport siyosatini shakllantirishda bu tushunchaning amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, eksport geografiyasini tahlil qilish orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada samarali boshqarish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: eksport geografiyasi, tashqi savdo, iqtisodiy rivojlanish, eksport oqimlari, geografik diversifikatsiya, hamkor mamlakatlar, tashqi iqtisodiy siyosat, xalqaro savdo yo'nalishlari.

Kirish. O'zbekiston agrosanoat majmuasi ulkan eksport salohiyatiga ega bo'lib, bu serquyosh zaminda yetishtirilayotgan mevalar, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash natijasida olingan oziq-ovqat mahsulotlari dunyo bozorlarida mustahkam o'rinnegi egallashi mumkin. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan meva va sabzavotlarni yetishtirishga imkon yaratadi. Bugungi kunda, biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi davlat qatoriga kiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlash natijasida olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish borasida integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilaridan jahon bozorlariga kirib borish uchun ma'lum bir bilim va ko'nikmalar hamda ishonchli axborot kanallariga ega bo'lishni talab etadi. Shu tufayli agrosanoat majmuasi oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorlariga eksportga chiqarishning nazariy va tashkiliy-iqtisodiy asoslarini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rganish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan sanaladi.

Muayyan bir mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozorlariga eksportga chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar eng avvalo xalqaro savdo nazariyalari bilan bog‘liq. Rossiyalik iqtisodchi olimlar I.V.Kokushkina, M.S.Voroninlarning fikricha: “Xalqaro savdo - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi bo‘lib, ancha murakkab va ko‘p qirrali holat hisoblangani uchun uning turli ta’riflari mavjud. Umum e’tirof etilgan ta’rifga ko‘ra xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakatlari tashqi savdolarining yig‘indisini ifodalaydi. Xalqaro savdo – bu muayyan mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi bo‘lib, u tovarlar, ishlar va xizmatlarni mamlakatdan olib chiqish (eksport) va mamlakatga olib kirishdan (import) tashkil topadi”⁴⁵”.

Ye.V.Vavilova va L.P.Borodulinalarning yondoshuvi bo‘yicha: “Xalqaro savdo (international trade) – xalqaro tovar-pul munosabatlarining barqaror sohasi bo‘lib, jahondagi barcha mamlakatlar tashqi savdolarining yig‘indisidan tashkil topadi”. “Xalqaro yoki jahon savdosi” termini shuningdek, yana quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin: 1) jahondagi barcha mamlakatlar savdosining umumiyligi hajmini; 2) sanoati rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar yoki biror kontinent, hududdagi mamlakatlar tashqi savdosining umumiyligi hajmini⁴⁶”.

Ye.Yu.Sidorova xalqaro savdoni mamlakatlarning chegaralar orqali tovarlar va xizmatlar bilan ayriboshlash jarayoni deb qaraydi. Uning fikricha, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda mamlakatlararo raqobat ustunliklaridagi (yoki nisbiy ustunliklardagi) farqlar xalqaro mehnat taqsimotiga asos yaratadi va mamlakatlar orasidagi eksport hamda import oqimini belgilab beradi⁴⁷.

Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda, xalqaro savdo mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga borgan sari kuchli ta’sir ko‘rsatib bormoqda. Birgina ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda xalqaro savdo tez sur’atlar bilan rivojlanib, uning o‘rtacha yillik o‘sish sur’atları jahon bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlaridan 1,5 marta ortiq bo‘ldi. Natijada, bir tomonidan, tashqi savdo iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili sifatida yuzaga chiqmoqda, ikkinchi tomonidan esa, mamlakatlarning xalqaro tovar ayriboshlashdan qaramligi darajasi ham sezilarli darajada oshdi⁴⁸.

Xalqaro savdo turli mamlakatlar o‘rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) ayriboshlash bilan bog‘liq munosabatlarni anglatib, u mamlakatlarning o‘zaro nisbiy va

⁴⁵ И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.

⁴⁶ Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 45 с.

⁴⁷ Е.Ю.Сидорова. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Экзамен, 2020. – 8 с.

⁴⁸ Н.А.Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2014.–22 с.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



taqqoslama afzalliklariga asoslanadi. Bu borada fanda bir qancha nazariyalar mavjud bo‘lib, biz ulardan aynan jahon agrar va oziq-ovqat bozorlariga qo‘llash mumkin bo‘lganlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Avvalombor mamlakatlar o‘zlaridagi ichki iste’moldan ortiqcha raqobatbardosh mahsulotlarni xalqaro bozorlarda sotish orqali valyuta ishlab topib, o‘zlarida ishlab chiqarilmaydigan tovarlarni xarid qilishga harakat qiladilar. Turli mamlakatlar turli pul birliklarini ishlatishlarini e’tiborga olsak, xalqaro bozorlarda amalda bo‘lgan valyutalarni ishlab topish uchun mahsulotlarni eksport qilishga to‘g‘ri keladi.

Agrosanoat majmuasi oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish zaruriyati va shart-sharoitlarini tahlil qilishdan oldin “Eksport” tushunchasining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish lozim bo‘ladi.

“**Eksport**” tushunchasiga ta’rif berishda turli manbalarda bir-biriga yaqin va o‘xshash yondoshuvlar uchraydi. Xususan, Rossiyalik iqtisodchi olimlar Ye.V.Vavilova L.P.Borodulinalarning ta’rif berishicha: “Eksport deganda tovarlar va xizmatlarni tashqi bozorlarda sotish uchun mamlakatning milliy chegarasi orqali olib chiqish tushuniladi. Eksport predmetlari bo‘lib mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar (xizmatlar) hamda tashqaridan mamlakatga olib kirilib, qayta ishlab tashqariga sotishga mo‘ljallangan tovarlar hisoblanadi. Ekportning alohida shakli sifatida reeksport, ya’ni mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlamasdan tashqariga chiqarib sotish yuzaga chiqadi”⁴⁹.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov va U.V.G‘ofurovlarning fikricha, “Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi”⁵⁰. Boshqa bir iqtisodchi olimlarimiz A.O’Imasov va A.Vahobovlarning ta’rificha, “Eksport – bu tovarlarni mamlakat tashqarisiga chiqarib sotish”⁵¹.

Yana bir manbada keltirilishicha: “Eksport – bu tovarlarni chet ellik xaridorlarga sotish bo‘lib, bunda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Eksportning iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadi, mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo‘lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportdan olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar bo‘yicha milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdarligiga bog‘liq”⁵². “Eksport” so‘zi lotin tilidagi

⁴⁹ Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 39 с.

⁵⁰ Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Ubaydullaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –Т.: Iqtisod- Moliya, -2010. - 610 b.

⁵¹ A.O’Imasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). –Т.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 392 b.

⁵² Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. -Т.: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya” nashriyoti, 2014.-34 b.





“exporto” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimada “chiqaraman” degan ma’noni anglatadi. Odatda bu so‘z zamirida bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga tovar-moddiy qimmatliklar, kapital, bilim, ishchi kuchi va boshqalarni olib chiqish tushuniladi⁵³.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.
2. Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 45 с
3. Е.Ю.Сидорова. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Экзамен, 2020. – 8 с.
- 4.Н.А.Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2014.–22 с.
5. Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 39 с.
6. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Ubaydullaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisod- Moliya, -2010. - 610 b.
7. A.O‘lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). –T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 392 b.
8. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya” nashriyoti, 2014.-34 b.

⁵³ Пособие по экспортной деятельности (для начинающих экспортёров Узбекистана). ПРООН, Торгово-промышленная палата Узбекистана. –Ташкент, 2017. – 4 с.

